



## MILLIY IQTISODIYOTDA TARKIBIY ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI

PhD **Mamanazarov Mansur**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

ORCID: 0000-0003-3936-0954

[m.mamanazarov764@gmail.com](mailto:m.mamanazarov764@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni amalga oshirish samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari o'rganilgan. Tadqiqotda iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan takomillashuvi, tarmoqlararo mutanosiblikni ta'minlash, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish hamda investitsion faollikni oshirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish va hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy iqtisodiyot, tarkibiy islohotlar, tarkibiy transformatsiya, iqtisodiy o'sish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, innovatsion rivojlanish, investitsiyalar, raqamli iqtisodiyot, inson kapitali, raqobatbardoshlik.

## СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ

PhD **Маманазаров Мансур**

Национальный университет Узбекистана

имени Мирзо Улугбека

**Аннотация.** В данной статье исследованы стратегические направления повышения эффективности реализации структурных реформ в национальной экономике. В ходе исследования проанализированы вопросы структурного совершенствования экономики, обеспечения межотраслевой сбалансированности, ускорения инновационного развития и повышения инвестиционной активности. Кроме того, разработаны научные выводы и практические рекомендации по диверсификации экономики, широкому внедрению цифровых технологий, развитию человеческого капитала и эффективному использованию экономического потенциала регионов.

**Ключевые слова:** национальная экономика, структурные реформы, структурная трансформация, экономический рост, диверсификация экономики, инновационное развитие, инвестиции, цифровая экономика, человеческий капитал, конкурентоспособность.

## STRATEGIC DIRECTIONS FOR ENHANCING THE EFFECTIVENESS OF STRUCTURAL REFORMS IN THE NATIONAL ECONOMY

*PhD Mamanazarov Mansur  
National University of Uzbekistan  
named after Mirzo Ulugbek*

**Abstract.** *This article examines the strategic directions for improving the effectiveness of structural reforms in the national economy. The study analyzes issues related to the structural modernization of the economy, ensuring intersectoral balance, accelerating innovative development, and increasing investment activity. In addition, scientific conclusions and practical recommendations are developed regarding economic diversification, the wider introduction of digital technologies, the development of human capital, and the effective utilization of regional economic potential.*

**Keywords:** *national economy, structural reforms, structural transformation, economic growth, economic diversification, innovative development, investments, digital economy, human capital, competitiveness.*

### **Kirish.**

Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishning yangi modeli sanoatlashtirish, innovatsiyalarni joriy etish, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, inson kapitalini rivojlantirish hamda iqtisodiyotning tarkibiy diversifikatsiyasini chuqurlashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, tarkibiy islohotlar iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tuzilmasini takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va investitsion jozibadorlikni mustahkamlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida so'nggi yillarda kuzatilayotgan globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, texnologik taraqqiyotning jadallashuvi hamda xalqaro bozorlardagi raqobatning kuchayishi milliy iqtisodiyotlarning tarkibiy jihatdan yangilanishini zaruratga aylantirmoqda. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarni rivojlantirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish tarkibiy islohotlarning asosiy maqsadlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda ham iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishning texnologik darajasini oshirish, xususiy sektor ulushini kengaytirish va hududlarning mutanosib rivojlanishini ta'minlash maqsadida keng ko'lamli tarkibiy islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish modeliga o'tish yuqori texnologik tarmoqlarni rivojlantirish eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan" (Farmon, 2023).

Shu bilan birga, tarkibiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida ayrim tizimli muammolar ham mavjud bo'lib, ular islohotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlar va mexanizmlarni ishlab chiqishni talab etmoqda. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ilm-fan integratsiyasini kuchaytirish, hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy iqtisodiyotning tarkibi nafaqat iqtisodiy rivojlanish natijasi, balki uning muhim sharti ham hisoblanadi. Iqtisodiyot tarkibi mamlakatda mavjud bo'lgan miqdoriy va sifat jihatidagi o'zgarishlarni aks ettiradi, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi hamda iqtisodiy tizimning barqarorligi va raqobatbardoshligini tavsiflaydi. Shu bilan birga, iqtisodiyot tarkibi iqtisodiy, texnologik, energetik, ekologik va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish ko'p jihatdan iqtisodiyot tarkibida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning samaradorligiga bog'liqdir.

"Iqtisodiyot tarkibini baholashda tarmoq, hududiy, sektoral, takror ishlab chiqarish va texnologik yondashuvlardan foydalaniladi. Tarmoq va hududiy tarkib mamlakatda mehnat taqsimotining shakllanishini ifodalab, iqtisodiyotning alohida tarmoqlari hamda hududlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi. Sektoral tarkib esa mulk shakllari va iqtisodiy faoliyat turlariga ko'ra iqtisodiy subyektlarning taqsimlanishini tavsiflaydi" (Kovaleva, 2015). Takror ishlab chiqarish tarkibi ijtimoiy mahsulotning shakllanish va taqsimlanish jarayonlarini ifodalasa, texnologik tarkib ishlab chiqarish vositalari, mehnat resurslari va texnologik jarayonlar o'rtasidagi nisbatlarni aks ettiradi.

### Adabiyotlar sharhi.

Milliy iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni amalga oshirish samaradorligini oshirish masalalari so'nggi yillarda xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, sanoatni modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va institutsional islohotlarni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Xorijiy olimlardan Lin (2020) iqtisodiy rivojlanishning yangi strukturaviy iqtisodiyot nazariyasini takomillashtirib, tarkibiy transformatsiya mamlakatning mavjud resurs ustunliklaridan samarali foydalanish va yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlarni rivojlantirish orqali amalga oshirilishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, davlat va bozor mexanizmlarining uyg'unligi tarkibiy islohotlar samaradorligini oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, Rodrik (2021) sanoat siyosati va iqtisodiy diversifikatsiya masalalarini tadqiq etib, rivojlanayotgan mamlakatlarda tarkibiy islohotlarning muvaffaqiyati innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish va eksport tarkibini murakkablashtirish bilan bog'liqligini asoslaydi. Uning fikricha, iqtisodiy o'sishning barqarorligi iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yangilanish darajasiga bevosita bog'liq.

Shu bilan bir qatorda, Stiglitz va hamkorlari (2022) iqtisodiy transformatsiya jarayonlarida institutsional omillarning rolini o'rganib, tarkibiy islohotlarning samaradorligi davlat boshqaruvi sifati, inson kapitali va innovatsion muhitning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi degan xulosaga kelgan. Mualliflar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida davlatning muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydilar.

"UNIDO ekspertlari (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sanoatni modernizatsiyalash va raqamli texnologiyalarni joriy etish tarkibiy islohotlarning muhim yo'nalishi sifatida baholanadi. Ularning fikricha, sanoatning texnologik darajasini oshirish va innovatsion ishlab chiqarishlarni kengaytirish iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlaydi".

Shu o'rinda aytish mumkinki, O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Vahobov (2021) milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirish, sanoatni diversifikatsiyalash va investitsion faollikni oshirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillari ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan takomillashtirish eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Xodiyev (2022) innovatsion iqtisodiyot sharoitida tarkibiy islohotlar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari sifatida raqamlashtirish, bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish va inson kapitalini rivojlantirishni ko'rsatadi. Olimning fikricha, innovatsiyalar iqtisodiyot tarkibining sifat jihatdan yangilanishini ta'minlaydi.

### Tadqiqot metodologiyasi.


Ushbu tadqiqotda milliy iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni amalga oshirish samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlarini aniqlash maqsadida tahlil va sintez, qiyosiy taqqoslash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik tahlil, ilmiy kuzatish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar, iqtisodiyot tarmoqlaridagi tarkibiy o'zgarishlar va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil olib borilib, tarkibiy transformatsiya jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik yo'nalishlar asoslab berildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Milliy iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni izchil amalga oshirish iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirish va resurslardan foydalanish samaradorligini yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi. Tahlillar natijasida sanoatni modernizatsiya qilish, xizmatlar sohasini kengaytirish, investitsiyalar va innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlari ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, inson kapitalini rivojlantirish, hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng qo'llash tarkibiy o'zgarishlarning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishi asoslandi. Olib borilgan tahlillar milliy iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni kompleks va o'zaro uyg'un holda amalga oshirish barqaror iqtisodiy o'sish, eksport salohiyatining kengayishi hamda aholi farovonligining oshishini ta'minlashini ko'rsatdi.



1-rasm. Milliy iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni amalga oshirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'sir mexanizmi

**Manba:** muallif tomonidan tarkibiy islohotlar nazariyasi va xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan.

Yuqorida keltrilgan rasmdan ko‘rinib turibdiki, tarkibiy islohotlarning iqtisodiyotga qisqa va uzoq muddatli ta‘sir mexanizmi aks ettirilgan. Rasmdan ko‘rinadiki, tarkibiy islohotlar dastlab korxonalar faoliyatini qayta tashkil etish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish hamda bozor mexanizmlarini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday o‘zgarishlar qisqa muddatda ayrim salbiy oqibatlarni, jumladan, vaqtinchalik ish o‘rinlarining qisqarishi, iste‘mol hajmining kamayishi va iqtisodiy faollikning sekinlashuviga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, tarkibiy islohotlarning uzoq muddatli natijalari iqtisodiyot uchun ijobiy samara beradi. Xususan, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi, investitsiyalar hajmining ko‘payishi, mehnat unumdorligining yuksalishi va real daromadlarning ortishi iqtisodiy o‘shishning barqaror manbalarini shakllantiradi. Islohotlar natijasida iqtisodiyotning raqobatbardoshligi kuchayib, resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi hamda investitsion muhit yaxshilanadi.

Demak, tarkibiy islohotlar qisqa muddatda muayyan moslashuv xarajatlarini talab qilsada, uzoq muddatda iqtisodiyotning sifat jihatdan yangilanishi, ishlab chiqarish salohiyatining kengayishi va yalpi ichki mahsulotning barqaror o‘shishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu sababli milliy iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni izchil amalga oshirish iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

## 1-jadval

**Milliy iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni amalga oshirishning ustuvor strategik yo‘nalishlar tasnifi**


Iqtisodiyot yo‘nalishlari	Tarkibiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari
<b>Sanoat sektori</b>	Sanoatni modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, mahalliy lashtirish darajasini oshirish, sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish
<b>Qishloq xo‘jaligi</b>	Agrosanoat integratsiyasini kuchaytirish, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, eksportbop mahsulotlar ulushini oshirish
<b>Xizmatlar sohasi</b>	Raqamli xizmatlarni kengaytirish, turizm va logistika xizmatlarini rivojlantirish, moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilash, xizmatlar eksportini oshirish
<b>Investitsiya va innovatsiyalar</b>	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, startap ekotizimini rivojlantirish
<b>Mehnat bozori va inson kapitali</b>	Zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, mehnat unumdorligini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, bandlikni ta‘minlash
<b>Hududiy rivojlanish</b>	Hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish, iqtisodiy faollik markazlarini shakllantirish, hududlararo tafovutlarni qisqartirish
<b>Raqamli iqtisodiyot</b>	Raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish, sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish
<b>Yashil iqtisodiyot</b>	Energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik barqaror ishlab chiqarishni kengaytirish

**Manba:** muallif tomonidan O‘zbekiston 2030 strategiyasi, iqtisodiy islohotlar dasturlari va xalqaro tajribalar asosida tuzildi.

Jadvalda keltirilgan ma‘lumotlar milliy iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari kompleks xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Iqtisodiy rivojlanishning barqaror sur‘atlarini ta‘minlash uchun sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar

sohasida tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirish bilan bir qatorda innovatsiyalarni keng joriy etish, investitsion faollikni oshirish hamda inson kapitalini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyot tarmoqlarining diversifikatsiya qilinishi va yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi faoliyat turlarining kengayishi resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududlarni mutanosib rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha sohalariga tatbiq etish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng qo'llash uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun mustahkam zamin yaratadi.



**2-rasm. Iqtisodiy transformatsiyaning asosiy yo'nalishlari va tarkibiy o'zgarishlar mexanizmi**

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Shunday qilib, iqtisodiy transformatsiyaning asosiy yo'nalishlari hamda tarkibiy o'zgarishlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etish mexanizmi tasvirlangan. Rasmdan ko'rinadiki, iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlash avvalo mehnat unumdorligini oshirish, iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash va iqtisodiyot tarkibini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligida mahsuldorlikning ortishi ortiqcha mehnat resurslarining sanoat va xizmatlar sohalariga oqib o'tishiga imkon yaratadi, bu esa aholi daromadlarining o'sishi va iqtisodiy faollikning kengayishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlari o'rtasida resurslarning qayta taqsimlanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi faoliyat turlarining rivojlanishini rag'batlantiradi kam samarali va past daromadli bandlik shakllari o'rnini zamonaviy, yuqori unumdor ish o'rinlari egallaydi. Bu jarayonlar milliy iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yangilanishiga, uning raqobatbardoshligini oshirishga hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun mustahkam zamin yaratishga xizmat qiladi.

### **Xulosa va takliflar.**

Yuqoridagi fikr va tahlillardan kelib chiqib, quyidagi muhim xulosalar chiqarildi va muayyan natijalarga erishildi.

**Birinchidan**, milliy iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni amalga oshirish iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi bosqichiga o'tish, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

**Ikkinchidan**, sanoatni modernizatsiya qilish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish hamda yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi ishlab chiqarishlarni rivojlantirish iqtisodiy o‘shishning barqaror manbalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Uchinchidan**, investitsiyalar va innovatsiyalarni rag‘batlantirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish tarkibiy islohotlar samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

**To‘rtinchidan**, inson kapitalini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish va zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasini jadallastirishga hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishga imkon beradi.

**Beshinchidan**, hududlarni mutanosib rivojlantirish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng tatbiq etish va tarkibiy islohotlarni kompleks ravishda amalga oshirish milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlash, eksport salohiyatini kengaytirish va aholi farovonligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:**

Farmon (2023) *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida: PF-158-son Farmon, 2023-yil 11-sentabr.* – Toshkent, 2023.

Kovaleva T.M. (2015) *Strukturnye preobrazovaniya v ekonomike: sushchnost i osnovnye napravleniya razvitiya // Ekonomicheskie nauki.* – Moskva, – № 9. – S. 45–52.

Lin J.Y. (2020) *New Structural Economics: Transition, Industrialization and Economic Development.* World Bank Publications.

Rodrik D. (2021) *Why Does Globalization Fuel Populism? Economics, Culture and the Rise of Right-Wing Populism.* Annual Review of Economics.

Stiglitz J.E., Greenwald B. (2022) *Innovation, Industrial Policy and Economic Development.* Oxford University Press.

UNIDO. (2024) *Industrial Development Report 2024: Turning Challenges into Sustainable Industrial Development.* Vienna.

Vahobov A.V. (2021) *Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari.* Toshkent.